

MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYODA PROKURATURA SOHASINING RIVOJLANISHI TARIXI

Farrux Rajabov Huquqshunos

Annotatsiya:

Ushbu maqolada mustaqillik yillarida Qashqadaryo prokuratura sohasining yuksalishi, bu organning jamiyat uchun juda muhim bo'lg'indan iboratligi haqida, organning vazifalari borasidagi fikrlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: mustaqillik, prokuratura, sud, pro-test, fuqaro, murojaatlar, qonun ustuvorligi.

Jonajon Vatanimiz- O'zbekistonimiz mustaqilligi buyuk ne'matlardan hisoblanadi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin jamiyat taraqqiyoti uchun har sohada o'zgarishlar, tub burilishlar amalga oshirildi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonning barcha viloyatlarida prokuratura organlari faoliyati tubdan o'zgardi, ularni nazorat qilish muhim ilmiy ahamiyat kasb eta boshladi. Zero, bu organlarning tarixiy rivojlanishi, o'ziga xos tizimi, bilim salohiyati, hududiy tarkibi, aholi joylashuvidagi turli shakllarning mavjudligi, aholi qatlamining turli tabaqaligi kabi xususiyatlar natijasida bu organ faoliyati chuqur tashkil etildi. Shunday organlardan biri O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi tizimi hisoblanadi. .

Prokuratura (lotincha- procurare- g'amxo'rlik qilish) - ba'zi mamlakatlarda jinoiy ishlarni qo'zg'atish, ayblovni yoqlash, davlat manfaatlarini himoya qilish organlar tizimi sifatida faoliyat yuritadi. Dastlab esa 13-14-asrlarda Fransiyada vujudga kelgan. Bir qancha mamlakatlarda Prokuratura barcha fuqarolar, tashkilotlar va mansabdor shaxslarning qonunlarni aniq va bir xilda bajarishi ustidan nazorat qilish vazifasi ham kiradi. Muayyan mamlakatlarda Prokuratura sudning tarkibiy qismi hisoblanadi, boshqalarida esa tashkiliy jihatdan undan ajratilgan. O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar. Prokuratura organlarining asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatidagi Prokuratura organi qisqacha tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, viloyatda kechgan ma'lum o'zgarishlarda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy omillar muhim o'rin egallaydi. Ma'lumki, prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri sudlarda fuqarolik ishlarini ko'rishda ishtirok etish, qonunlarga zid bo'lgan sud hujjatlariga pro-test keltirish hisoblanadi. Xususan, ko'zdan kechirilayotgan davrda Qashqadaryo viloyatining sud-huquq tizimini isloh qilish hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida samarali ishlar amalga oshirildi. Jamiyatimizda turli xil

huquqiy munosabatlar rivojlangani sari fuqarolik ishlari bo'yicha sudlardan kelib tushayotgan murojaatlar soni ortib, sud tartibida hal etilishiga muhtoj har xil yangi, birmuncha murakkab huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan fuqarolik ishlari ko'payib borayotganligi, natijada fuqarolik ishlari bo'yicha sudyalarning ish hajmi kengayib, fuqarolarning buzilgan huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini to'g'ri va o'z vaqtida, samarali himoya qilish zaruratining yuzaga kelayotgani Qashqadaryo prokuratura organi va prokuror ishtirokining dolzarb ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Ta'kidlash joizki, aholining muammolari shahar va qishloq joylarda farq qiladi hamda shahar joylarda oilaviy mojarolar, qonunbuzarliklar, kelishmovchiliklar qishloqlarga nisbatan birmuncha yuqori. Buning ba'zi ob'ektiv va sub'ektiv sabablari mavjud. Jumladan, qishloqlarda ayollarning ijtimoiy hayotida bandligini past darajada bo'lishi, qo'l mehnati ko'p talab qilinadigan qishloq xo'jaligida ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi, milliy an'analar davrlar davomida tug'ilishning yuqori bo'lishiga olib kelgan. Shahar aholisi tarkibida esa turli millat vakillarining ayollarning ijtimoiy hayotda faolligi, iqtisodiy-ijtimoiy omillarga bog'liq holda uy-joy muammosi va boshqa sabablari tug'ilish darajasining biroz past bo'lishiga olib keladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, istiqlol yillarida Qashqadaryo viloyatidagi Prokuratura organlari faoliyatidagi o'zgarishlar bevosita ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga bog'liq holda kechdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasining joriy arxivi. 2020 yil.
2. Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasining joriy arxivi. 2019 yil.
3. Хонбобоев, Хакимжон Октамович, Мубина Хакимжонова Икромов, and Мухаммад-Анасон Хакимжонович Икромов. "Ta'limda axborot texnologiyalarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari." Молодой ученый 3-1 (2016): 21-22.
4. MUBINAKHON, IKRAMOVA, and IKRAMOV MUHAMMAD ANASKHON. "The Importance of Using the Ict to Increase the Efficiency of Education." JournalNX 7.1: 106-108.
5. Makhmudovich, Gulyamov Komiljon, and Ikromov Muhammad Anasxon Hakimjon o'g. "DEVELOPMENT OF CHILDREN'S ARTISTIC AND CREATIVE ABILITIES IN THE PROCESS OF TEACHING UZBEK FOLK APPLIED DECORATIVE ARTS." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.5 (2022): 957-963.
6. Ikromov, Muhammadanasxon Hakimjon Ogli, and Zulhayoxon Muhtorjon Qizi. "MARKAZIY OSIYODA GRAFIKANING RIVOJLANISHIGA HISSA QO'SHGAN BUYUK OLIMLAR." Central Asian Academic Journal of Scientific Research 2.5 (2022): 627-630.

7. Gulyamov, K. M., and M. H. Ikramov. "Development of artistic and creative abilities of future teachers of fine arts through computer graphics." JournalNX 7.06 (2021): 95-99.
8. Hakimjon og, Ikromov Muhammad Anasxon. "BO 'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O 'QITUVCHILARIGA "MUHANDISLIK KOMPYUTER GRAFIKASI" FANINI O 'QITISH JARAYONIDA ULARNING BADIY-IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI." Conferencea (2023): 34-38.
9. Ikromov, M. X., and A. X. Abdullaev. "METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF ARTISTIC AND CREATIVE ABILITIES OF FUTURE TEACHERS OF FINE ARTS IN THE PROCESS OF TEACHING COMPUTER GRAPHICS." International Journal of Early Childhood Special Education 14.7 (2022).
10. Гулямов, Комилжон Махмудович. "БЎЛАЖАК ТАСВИРИЙ САНЪАТ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ КОМПЬЮТЕРДА ГРАФИК МОДЕЛЛАШТИРИШ АСОСИДА КАСБИЙ ТАЙЁРЛАШ МОДЕЛИ." УЧИТЕЛЬ 3.4 (2022).